



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 10-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz

21-OKTABR - O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI



Ushbu sonda



ADABIY TAQVIM

Jahon she'riyatining
yurqin sahifalari



METODIK TAVSIYA

Mumtoz asarlarni
o'qitishda innovatsion
yondashuv



TADQIQOT

Xalq ijodiyatida Alisher
Navoiy obraz



HAUVIYIE ISSLEDОВАНИЕ

Особенности
художественной речи и
повествовательной ситуации





O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.
10-son.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liq SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari borishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2023.25.10. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharhli bosma tabog'i 6,0. "Ansal" garmiturasi. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ____ Adadi 3550 nusxa. Bahosi ketishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTARGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Dolzarb mavzu

Bashorat Baxriddinova. Zamonaviy o'zbek ortologiyasi va ortografiyasi: muammo va yechimlar 3

Murodqosim Abdiyev. Joy nomi - ma'naviyat ko'zgusi 5

Adabiy taqvim

Usmon Qosimov, Akbar Jumanov. Jahon she'riyatining yorqin sahifalari 8

Metodik tavsiya

Dilafroz Sarimsakova. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish

ijtimoiy zarurat sifatida 10

Kumush Rajapova. O'quv topshiriqlarini tuzish usullari 12

Maxsuda Saribayeva. Mumtoz asarlarni o'qitishda innovatsion yondashuv 13

Zilola Mahmudova. The vital role of the teacher in English language teaching 16

Qobiljon Valiyev. Akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini

rivojlantirishga qo'yiladigan talablar 17

Tilshunoslik

Aziz Rasulov. Til shakllanishining tarixiy bosqichlari va undagi tarixiy-fonetik o'zgarishlar 19

Guli Ergasheva, Gulola Inamova. Innovatsion texnologiyalar orqali mutaxassislarining fonetik

kompetensiyasini shakllantirish 21

Tarjimonshunoslik

Dildoraxon Shukurova. Yapon tilidagi gender ekspressivlikka asoslangan maskulin qo'shimchalarning

o'zbek tilida berilishi 25

Tadqiqot

Ixtiyor Ermatov. Terminologiyada dubletlar va sinonimlar munosabati 27

Ra'no Rozikova. Loyihaviy ta'lim metodini xorijiy til o'qitishda samarali qo'llash: muammolar va yechimlar 29

Anora Temirova. Xalq ijodiyotida Alisher Navoiy obrazi 31

Fu Lei. A study on application of continuation writing in college English writing based on Write 2.0 33

Sha Rula. Becoming a Malchin: on the nomadic way of thinking in Zhang Chengzhi's novel the golden pasture 35

Zarifa Shamirzayeva. Kasbiy kompetentlik tushunchasining mohiyati 38

Kichik tadqiqot

Inobat Madraximova. "Kuz" obrazining uslubiy xususiyatlari 40

Mastona G'ozieva. Autentik videomateriallar vositasida talabalarning ingliz tilidagi sotsiopragsmatik

kompetensiyasini rivojlantirish 42

Dilshoda Yuldasheva. Eduard Sapir's contribution to the development of linguistics, linguistic typology,

phonology and sociolinguistics 43

Dinara Muminova. Pedagogik jarayonda rasmiy kitoblarni fenomeni 45

Metodika. O'qit

Shoira Narzullaeva. Место человека в жизни по рассказу А.П.Платонова «Песчаная учительница»

Из опыта преподавателя 49

Из опыта преподавателя

Ирина Морозова. Экологическое воспитание на занятиях по русскому языку

как неродному/иностранному 51

Языкознание

Светлана Ярцева. Анализ языковой интерференции в рассказе А.Л.Бера "Polito Chicken" на английском 53

Проблемы перевода

Алла Цой, Александр Цой. О когнитивных механизмах диалогической модели перевода мифа о Тангуне 56

К юбилею писателя

Кодиржон Носиров. Чингиз Айтматов в «Заветной лире» 59

Научные исследования

Эльвина Алиева, Егор Масюков. Семантико-функциональный потенциал вставных конструкций

в рассказе Г.В.Пряхина «Животное начало» 63

Зулхумор Эгамназарова. Стереотипы национального характера в связи с художественным

методом русских сатириков 67

Виктория Лямкина. Роль русского языка в Узбекистане и дальнейшие перспективы 69

Замира Ахмадиллаева. Изучение вариативности просодий в публичной речи 71

Виктория Пулатова. Особенности художественной речи в новейшей антиутопии 73

Формы обучения

Дилором Холматова, Барно Атаджанова. Предметно-интегрированное обучение при преподавании

русского языка в техническом вузе 75

Светлана Мен. Учебные тексты в развитии культурологической компетенции у будущих учителей

корейского языка 76

Дилфуза Хусенова. Современные подходы к преподаванию русского языка как иностранного 78

Феруз Султонов. Преимущества внедрения имитационных игровых технологий в систему

подготовки будущих переводчиков 79

журнали

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli Qarori.
2. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – Москва, 2002.
3. Чошанов М.А. Теория и технология проблемно-модульного обучения в профессиональной школе: дис. ... доктора пед. наук. – Казань, 1996.
4. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. – 2004. – №5. – С. 3–12.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
7. Xurvaliyeva T.L. Bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvda psixologik himoyalash muammolari // Academic Research in Educational Sciences Volume. Scientific journal impact factor. – Chirchiq, 2022. – №12. 661–667-betlar.
8. Зеер Э.Ф. Саморегулируемое учение как психолого-дидактическая технология формирования компетенции у обучаемых // Психологическая наука и образование. – 2004. – № 3. – С. 5–11.

Kichik tadqiqot

Inobat MADRAXIMOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

"KUZ" OBRAZINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Borliq va yo'qlikning ibtidosi va intihosi bo'lganidek, inson o'z olamida tasavvur ham dosh berolmaydigan angamlar, tushuncha va mohiyatning siri nimada ekanligiga doim qiziqib yashaydi. O'zini o'rab turgan mavjudlik haqida bilim va tasavvurlarini yanada oshirib borishga, bu sirli jumboq orqasida qanday ilohiy kuch yashirin ekanligini bilishga intilib umr kechiradi. Yaratganning har bir jilvasida sabab va oqibat turishini anglaydi, tugal kuni kelib materiyadagi har bir tirik jon borki o'lim sharbatini totib ko'rishga o'zida kuch topadi. Bu Allohni bilishga, Ungagina itoat qilishga zamin hozirlaydi. Dunyo shoirlari talpinib, intilgan cho'qqilar ham bir kun o'z yakuniga yetishini, Allohning fazl-u karamisiz biror narsa o'z o'rnidan bir soniya bo'lsa ham jilmasligini yaxshi tushuna boradilar. Tushuncha insonni ma'nan, ruhan, moddiy o'zlashtiradi. XX asr tong otariga qadar mumtoz lirikada oshiq va ma'shuq obrazi badiiyligini ta'minlash borasida yozuvchi va shoirlar juda katta izlanishlar olib bordilar. Sonsiz, sanoqsiz obrazlarni yaratdilar. Birgina Alisher Navoiyning o'zi inson umrini to'rtta faslga ajratib, yashashning mantiqiga xos ism topishga erishdi. Demak, kuz – betimsol, betakror fasl! Uni bakiy va oriflargina yaxshi anglab yetadi. Idrok va muhabbat har qanday masalaga jiddiy javob topishga undaydi.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyatida insonni o'limga tayyorlash, o'zini anglash, bilish, sezish va his qilib umr kechirish falsafasi ko'z o'ngimizda qizil ip bo'lib o'tib turadi. Shoirning boshqalarga o'xshamagan jihati ham shunda qabarib ko'rinadi. O'zining butun borlig'ini kuz atalmish jozib va tillorang moddiyat, ruhiyatga topshirib qo'yganligi, u javhar olamdan katta ma'nolarni kashf qilganligini e'tirof etish joiz. Negaki, shoir uchun kuz dunyoning eng maqbul programmasi, insonning bu yolg'on olam bilan xayrlashish va uchrashish, chinga qovushish maskanidir.

Adabiyotshunoslik lug'atida uslub haqida shunday yozilgan: "Uslub (ar. – tartib, yo'sin, tarz) poetikaning

muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakllanishini belgilovchi umumiy prinsip. U antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni uslub badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini belgilaydi" [1: 341]. Haqiqatan ham, she'riy asarda uslub shoir kechinmalarining mantiq bilan uyg'unlikda namoyon bo'lishini, sujet va kompozitsiyaning bir maxrajda birikuvini dalolatlaydi. Ayniqsa, kechinma tabiiy va haqqoniy idrok etilishi ko'pincha uslubiy ishlanganlik darajasi bilan bog'liq kategoriyadir. She'riy nutq shoir olamining tasavvurda namoyon bo'lgan ko'rinishi, sifati va shakli, mazmunini keltirib chiqaradi. Demak, uslubning davomiyligi asardan asarga qadar o'sib, mohiyatni to'laqonli aks ettirish manerasi ekanligini ham kafolatlaydi:

*Boysunga ham kuzak kelgandir.
Tog'lar bu kun o'sishdan to'xtab,
Silkinmasdan yig'layotgandir –
Selda ketgan bir toshni yo'qlab* [2: 397].

Shoir o'zi tug'ilib o'sgan so'lim tog' bag'ridagi go'sha – Vatanini qo'msaydi. Boysunda kechgan bolaligi umri bino bo'lib hayotning mantiqini anglab yetganligi, kuzning kelishi, o'tgan xotiro'larni qayta idroklashga keng imkon bermoqda. She'rdagi uslubiy o'ziga xoslik haqiqatan ham umr intihosida bu dunyoning sir-u asrorini anglashini nazarda tutmoqda. Kuz ijodkoriga benihoya katta bir tasvir maydonining formulasini chizib bermoqda. Kuz dunyoda yashayotgan har bir insonning savollar qarshisida javob berishga intilishi, mohiyatni anglashi, bu anglashlar ruhiyatning samoga

parvozi ham dalolatlashga xizmat qiladi. Rus munaqqidi Vissarion Belinskiy: "Olamdagi narsalar beadam va xilma-xildir, lekin ularda ma'lum mushtaraklik bor va ularning barchasi umumning juz'iy ko'rinishlaridir. Mana shuning uchun ham falsafa birgina yagona umumiylik mavjuddir, deb aytadi. Hayot to'la ko'krakning nafas olishi juz'iy ko'rinishdir. Odamlar tug'iladi – o'ladi, keladi – ketadi, ammo hayot hech qachon o'lmaydi, hech qachon yo'qolmaydi. Okeanda to'liqlar bunyod bo'ladi, to'liqlar to'liqlarni quvadi, to'liqlar to'liqlar bilan almashinadi, lekin okean hamon o'sha ilgariyay buyuk va teran, o'zining tubsiz va poyonsiz maskanida barqaror turaveradi. Uning billur tomchilarida esa porloq quyosh yog'dusi hamon tantanavor aks etaveradi, beadam yulduzlar sochilgan tungi osmon o'sha ilgariyay uning siynasida titrab, chayqalaveradi" [3: 95]. Binobarin, munaqqid V. Belinskiyning adabiy orzusi ham insonning nomukammalligidan mukammallik sari intilib yashash orolig'ida kechayotgan tashqi yorqin namunasidir. Insonning botiniy olami tashqi olam bilan uyg'unlashgandagina bu hayot mantig'ini to'laqonli anglash darajasiga ko'tarila boradi. Usmon Azim kuz obrazidan katta bir umumlashma manzumalar yarata oldi. Poetik obraz tashuvchi yaproq, xazon, daraxt, mezon va shunga o'xshash tasvir predmetlari shoir uslubining yanada teranlashuviga hamda alohida xususiyatlarning yuzaga chiqishiga keng yo'l ochdi:

*Bo'shat, qismat, bo'shatgin dastni!
Umr keldi qirqni qoralab.
Boysun tomon ketsam bo'lmasmi,
O'tkirguncha xazon oralab?
Tan – jonimda,
Jon – tanimda yo'q...
O, sog'inchga to'ldim men buncha!
Yo'q, Boysunni sog'inganim yo'q.
Tangrim, seni tanigunimcha [2: 397].*

Shoir qirq yoshga kelib Allohni tanish haqida juda chuqur mushohada yuritarkan, Boysunga borishdan oldin o'zining qismatini ko'z o'ngida tasavvur qilishga intiladi. Xazonni oralab borish – Allohni tanish deb tushunadi. Deylik, u qishloqning ibtidosini tug'ilish, o'zining sohir va beg'am bolaligi deb bilsa, ana shu jarayonda shaharda topgan javharlarini ham juda teran anglashga o'zida qandaydir bir umid topadi. Muhabbat shoir olamini keskin ziddiyatlarga ro'baro' qiladi.

*Bebaxlikda bu kuzak baxti! –
Tabiat ham qismatga ko'nar.
Bugun hamma-hamma daraxtni
Quchib-quchib yig'lasam bo'lar.
Vazminlik bor ular o'yida,
Vaqt oldida fidoyilik bor.
Xazonrezning g'amgin to'yida
Hasrat bergan xudoyilik bor [2: 395].*

Usmon Azimning juda ko'plab she'rlarida kuz obrazi uslubiy transformatsiya vazifasini bajaradi. Deylik, shoir

o'zini juda yolg'iz his qiladi. Uning gaplashadigan habibi, do'sti va suhbatdoshi – kuzgi chiriyoigan xazonlar. Mavjudlikning ibtidosi ham, intihosi ham, yetib keladigan manzil-u makon shoir nazdida – kuz! U kuzga hayrat va mehrga to'lmagan ko'ngil mashvarati deb qaraydi. "Bugun hamma-hamma daraxtni // Quchib-quchib yig'lagim kelar", deydi shoir. Mana shu quchib yig'lash orqali yaqinlarini, o'zining butun insoniyatni ulkan muhabbat bilan sevrishini idroklamoqda. Sotqin do'stdan, mehrsiz yordan, tamagir oshinodan bezgan shoir lirik qahramoni – sariqqa do'ngan xazon va chiriyoigan, qovjirab mezon kabi uchi borayotgan yaproqlarga yuqinib nolasini izhor qilmoqda. Shoir qalbida odamlarga emas, Allohning yaratig'i – kuzga, tabiatga, beozor bir xilqatga bo'lgan betakror ishq bor. Ayni shu qismat bilan shoir o'zini judayam baxtli his qilishi tayin.

Ruhi uyg'oq odam uchun tabiat hamisha tirikdir. Bu tirilik ne'mati ijodkor kayfiyatini yanada yuksaltiradi. "Dunyo bugun sarg'aygan chorbog'", deydi shoir. Mana shunday obrazli o'xshatish ijodkorining talqin va tasvir o'ziga xosligining yuksakligini dalolatlaydi. Mana shu tamoyilga amal qiladigan bo'lsak, ijodkor mantiq farzandi ekanligi ayonlashadi. Dunyoning ravshini o'zgartirayotgan odam emas, uning hatti-harakatlari deb biladi. Sabrizlikdan dunyo ham sochlari patila bo'lib, sarg'ayib, xazon bo'lmoqda, hammasida insonning ulushi mavjud degan g'oyani ilgari suradi. Negaki, inson har qanday sharoitda nafsning quli! Nafs – hatto dunyoni sarg'aytirib, o'z qonuniyatlarini o'zgartirishga olib kelayotgan "parda" orqasidagi fojilikni keltirib chiqarishi tabiiy bo'lib qoldi. Mana shu jihatlarga amal qiladigan bo'lsak, idrok qilinayotgan uslubining butun konseptual va originalligini ta'minlashga qaratiladi:

*Bir barg dardin eshitdim men ham –
Ruhga ko'chdim – tanim qolmadi.
Tilga kirdi tilsimli olam –
Menga bir ham g'anim qolmadi [2: 395].*

Shoir daraxt va barglarni o'ziga habib, hamroh va sadoqatli sirdosh deb biladi. Mana shuning uchun ham uning olamida barglarni his qilish, bu dunyoning o'tkinchiligini anglash modifikatsiyasi yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, insonning nafsini tiyishi, har bir bo'layotgan voqelikning sabab va oqibatlari taqdiridan ekanligi ham bo'y ko'rsatadi. Biroq shoir ana shu hodisotlarni kuz timsolida aniqlashtirib, yangi bir obrazlarni kashf etishga o'zida kuch topadi. Dunyoning soat sayin o'zgarib, turlanib, tuslanib borishi ijodkor badiiy izlanishlarida – kuz va uning xazonlari uyg'unligida poetik inkishof qilinadi. Kuzga shoir shunchaki tasvir predmeti deb emas, olam sirilarini bilish manerasi sifatida izchil bir yagona konseptual modifikatsiyani urg'ulaydi. Ayni paytda, idrok qilinayotgan kuz timsollar ichida yagona estetik pafos. Buni pafos darajasiga olib chiqish Usmon Azim badiiy olamiga yanada yaqinlashishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 1994.
2. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
3. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. – Toshkent: "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1977.